



**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2025-yil, 12-13-noyabr

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE
PHILOLOGY AND TRANSLATION
STUDIES”**
international scientific and practical conference
November 12-13, 2025



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

2025-yil, 12-13-noyabr

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY
AND TRANSLATION STUDIES”**

November 12-13, 2025

Tashkent – 2025

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV

akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic
“Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat SIROJIDDINOV

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Editorial Board:

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

YOZMA MANBALARDA HIROTNING TARIXIY TOPONIMIKASIGA DOIR MA'LUMOTLAR: SHOHRUX MIRZO DAVRI

Azizjon Sharipov,

*O'zRFA Temuriylar tarixi davlat muzeyi bo'lim mudiri,
Sharqshunoslik instituti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ma'lumki, yozma manbalarda Hurosondagi eng qadimgi shaharlardan biri bo'lmish Hirot va uning tarixiy obidalari haqida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur maqolada Hirotning qadimiy o'tmishidan tortib, o'rta asrlar, hususan Temuriylar davrigacha bo'lgan shaharsozlik tarixi, Shohrux mirzoning bunyodkorlik va obodonchilik sohasidagi faoliyati, Hirot me'moriy obidalari hamda tarixiy topografiyasiga oid toponimik ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Hirot, temuriylar davri, yozma manbalar, tarixiy joy nomlari, madrasa, xonaqoh va ziyoratgohlar.*

Abstract. As is known, written sources contain a lot of information about Herat, one of the oldest cities in Khorasan, and its historical monuments. This article analyzes the history of urban planning of Herat from its ancient past to the Middle Ages, especially the Timurid period, the activities of Shahrukh Mirza in the field of construction and improvement, toponymic information about the architectural monuments and historical topography of Herat.

Keywords: *Herat, Timurid period, written sources, historical place names, madrasah, khanaqah and shrines.*

Hirot Hurosondagi eng qadimgi shaharlardan biri. Shaharning vujudga kelishi davri noaniq bo'lsa-da, biroq Ahamoniylar davri (mil.av.550-330 yy.)da bu hudud “Haraiva”, “Oriya” deb atalmish alohida viloyat (satrapiya) sifatida qadimgi yunon manbalarida qayd qilingan. Shahar nomi “Avesto”da tilga olingan “Harayu”, “Harairuda” (qadimgi oromiychada “tez oqar suv”) deb atalgan hozirgi Harirud daryosi nomidan olinganligi tahmin qilinadi. Bu daryo Markaziy Afg'onistonning Hindukush tog'laridan boshlanib, Hirotning janubiy yerlaridan oqib o'tadi. Toyobodga yetganda daryo o'z o'zanini shimolga burib, Saraxs va Tajan shaharlaridan o'tib, so'ngra Qoraqum cho'liga singib ketadi (umumiy uzunligi 1150 km).

Hirot Rum va Fors, Hindu Sind o'lkalarini bog'lab turuvchi qadimgi savdo chorraxalarida joylashgan muhim shaharlardan biri bo'lgan. Hirotning bugungi kungacha saqlanib qolgan eng qadimgi shahar qismi Ko'handiz tepaligida joylashgan ko'hna Hirot qal'asi (Hirot arki) hisoblanadi. Mahalliy rivoyatlarga ko'ra qal'a Iskandar Maqduniy tomonidan mil.av. 330-yilda barpo etilgan bo'lib, “Oriya Aleksandriyasi” deb atalgan. Shubhasiz, shahar Iskandardan oldin mavjud bo'lgan. Hamdalloh Qazviniy o'zining “Nusxat ul-qulub” asarida yozadi: “Hirot – Narimon (“Shohnoma qahramoni”)ning sarkardalaridan birining nomi. Shaharga u asos soldi. Iskandar Zurqarnayn uni qayta tiklab, 9000 qadamga teng devor bilan o'radi”¹. Keyingi davrlarda ham shahar qal'asi bir necha bor buzilib, qayta tiklangan. Bugungi kunda Ko'handiz qal'a hududi shahar qabristoniga aylangan.

Hirotning islomgacha bo'lgan davriga oid yozma ma'lumotlar kam bo'lsa-da, VII asrdan boshlab arablarning Xurosonga kirib kelishi natijasida Hirot vohasida kechgan tarixiy siyosiy jarayonlar qatorida shahar haqida bir muncha ma'lumotlar ko'paya boshlanadi. Bu davrda shahar Ko'handiz tepaligidan biroz janubda alohida yangi qal'a sifatida barpo etilgani kuzatiladi. Istahriy, Maqdisiy, Ibn Xaukal va boshqa tarixchilarning yozishicha Hirot qal'asi to'rtburchak ko'rinishida, har bir tomonlari o'z nomlariga ega to'rt darvozalardan iborat bo'lgan. Mahmud ibn Valiy o'zining “Baxr ul-asror” asarida somoniylar davri tarixchisi Abu Zayid Balxiy (235/850–322/934)ning “Taqqim al-bilod” asariga tayangan holda Hirot darvozalari nomlarini keltiradi: shimoliy devorda

¹ Hamd-Allāh Mustawfi of Qazwīn. The Geographical Part of the Nuzhat al-Qulūb // Translated by Guy Le Strange. – London. Leyden: E.J.Brill. Imprimeriye Oriyentale. 1919.

“Balx” darvozasi, janubda “Seyiston”, gʻarbda “Sheroz”, sharqiy darvoza esa “Gʻur” deb atalgan¹. Mustahkam devor va burjlar bilan oʻralgan qalʼa ichida hukmdor qarorgohi (ark), zarbxona, katta jomeʼ masjid, har bir darvoza tashqarisida bozorlar, shahar va uning atroflari sersuv anhorlar bilan sugʻoriladigan koʻplab bogʻlarga ega boʻlgan.

998-yilda Sulton Mahmud Gʻaznaviy Xurosonni zabt etgach bu yerda tanga pullar zarb qilgan. Gʻaznaviy davlatining zaiflashishi oqibatida Hirot 1175-yildan Gʻuriylar saltanati tarkibiga kiritiladi. Bu davrda shahar ayniqsa gullab yashnaydi. Qazviniy maʼlumotiga koʻra shaharda 300dan ziyod maktab-madrasalar, 12 mingdan ziyod savdo doʻkonlari, karvonsaroylar, koʻplab xonaqoh va hammomlar qurilgan. Albatta bu raqamlar mubolagʻali ravishda oshirilib yozilgan boʻlsa-da, haqiqatdan ham bu davr meʼmoriy obidalarga boy boʻlgani shubhasiz. 1201-yilda Malik Gʻiyosiddin Muhammad Gʻuriy (1139–1203) tomonidan Hirotning eng katta Masjidi Jomeʼsi qurilgan, lekin ayni vaqtda shaharda zardushtiylarning otashxona-ibodatxonalari va nasroniy cherkovlari ham faoliyat koʻrsatgan edi. Bu davrda Hirot gazlama, temir buyumlar, ayniqsa, bronzadan ishlangan oʻymakor buyumlar ishlab chiqaruvchi muhim savdo-iqtisodiy markazga aylangan.

XIII asrga kelib shahar Gʻuriy maliklari va Xorazmshohlar oʻrtasida raqobat maydoniga aylanadi. 1214-yildan qisqa vaqt Xorazmshohlar qoʻliga oʻtadi. Chingisxon istilosi davrida Hirot ikki marta moʻgʻullar tomonidan ishgʻol qilinib vayron etiladi. 1221-yilda Toʻlixon boshchiligidagi mugʻullar Hirotni dastlab qamal qilganida Sulton Jaloliddin Manguberdi tomonidan tayinlangan shahar hokimi Malik Shamsiddin Juzjoniy istilochilarga qarshi mardonavor janglar olib boradi. Faqatgina Malik Shamsiddin va uning 12 ming askari halok boʻlgachgina shahar aholisi darvozalarni moʻgʻullarga ochib berishga majbur boʻlishadi. Jaloliddinning Parvon jangidagi gʻalabasidan ilhomlanib Hirot ahli istilochilarga qarshi qoʻzgʻolon koʻtarib, Chingisxonning bu yerdagi noibi va tarafdorlarini oʻldirib, moʻgʻullarni shahardan quvib yuborishadi. Qoʻzgʻolonni bostirish maqsadida Elchidoy noʻyon boshchiligidagi moʻgʻullar shaharni yetti oy qamal qilishadi va hijriy 619-yil jumod ul-avval (1222, iyun-iyul) oyida uni qayta egallashga muvaffaq boʻlishadi. Aholining deyarli xammasi moʻgʻullar tomonidan shafatsizlarcha qirib tashlanadi. Atomalik Juvayniyning “Tarixi jahonkushoyi” asariga tayangan holda Sharafiddin Ali Yazdiy yozadi: “Elchidoy noʻyon qalʼaning Xokistar burji tomonidan bostirib kirib, shaharni egalladi. Uning buyrugʻi bilan erkak va ayol, qari va yosh, katta va kichik barchani qatl etdilar, ariqlardan qonlar oqizdilar, uylarni yoqib vayron qildilar, shahar devorlari, burj va borularini buzib tashladilar, xandaqni esa koʻmib yubordilar. Moʻgʻullar yetti kun davomida oʻldirmoq, oʻt qoʻymoq, qoʻpormoq va qon toʻkmoqdan boshqa ish bilan shugʻullanmadilar. Hirot aholisidan ming ming va olti yuz ming (1 600 000) kishi shahid boʻldi. Elchidoy noʻyon Hirot yerini shu darajada tekislab tozaladiki, biror tirik jon qolmadi”². Manbalarda shahar 20 yil davomida, to 1236-yilgacha tuproqlar ostida vayron yotgani qayd qilingan.

1244-yilda Xuroson boshqaruvi moʻgʻullar tomonidan mahalliy shahzoda Malik Shamsiddin Kurt (vaf.1278)ga topshiriladi. Kurtlar sulolasi davrida³ Hirot qayta jonlanadi. Saljuqiylar davrida qurilgan Nizomiya madrasasi va boshqa bir qancha masjid, xonaqoh va maqbaralar tiklanadi, Harirud daryosidagi Puli Molon koʻprigi ham taʼmirlanadi. Malik Faxriddin Kurt (hukm. yillari 1295–1308)ning nomdor vaziri Ixtiyoriddin Malik tomonidan moʻgʻullar davridan buyon vayron yongan Hirot qalʼasining arki qayta tiklanib, mustahkamlanadi. Xandaq va devor bilan oʻralgan oltita burj-

¹ Bahr ul-asror, qarang: Maxmud ibn Vali. More tayn otноситelno doblestey blagorodnyx (Geografiya) / Pervod B.Axmedova. – T.: Fan, 1977. – S.82.

² Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. 1-kitob. Muqaddima // Fors tilidan tarjima, soʻz boshi va ilmiy izohlar muallifi Omonullo Boʻriyev. Shaxs ismlari, joy nomlari, etnik nomlar va atamalar koʻrsatkichini tuzuvchi Azizjon Sharipov. Masʼul muharrir D. Yusupova. – T.: Fan, 2020. – B.220–221.

³ Xurosonda 1244–1381-yillarda hukmronlik qilgan sulola. Manba va tadqiqotlarda baʼzan “kartlar” deb ham keladi.

minoradan iborat ushbu ark endilikda “Qal’ayi Ixtiyoriddin”, “Ixtiyoriddin hisori” deb atala boshlanadi. Bu davrda shahar, Sayf ibn Muhammad ibn Yoqub Xaraviyning “Tarixnomayi Hirot” asarida keltirilishicha, “Xuroson gavhari” sifatida dunyoga mashhur bo’ladi.

Amir Temur va Temuriylar davrida Hirot o’zining yangi rivojlanish taraqqiyot bosqichini o’taydi. Bu davrda yaratilgan yozma manbalar shaharning XV–XVI asrlarga oid tarixi haqida habar beruvchi ma’lumotlarning ko’pligi va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Bir birini to’ldirib boruvchi ushbu manbalardan Xurosonda, hususan uning poytaxti Hirotda temuriy hukmdorlarning obodonchilik ishlari naqadar keng ko’lamda olib borilganligiga guvoh bo’lamiz.

1380-yilda Amir Temur Xurosonni o’z davlati tarkibiga kiritadi. Bu yurishda Sohibqironning 14 yoshli o’g’li Mironshoh mirzo alohida jonbozlik ko’rsatgani uchun hijriy 782/1383-yilda uni Xuroson voliysi etib tayinlaydi. Garchi Mironshoh Xurosonda 795/1392-yilgacha hokimlik qilgan bo’lsa-da, uning Hirotda olib borgan qurilish ishlari haqida ma’lumotlar manbalarda deyarli uchramaydi. Biroq rafiqasi Xonzoda begim tomonidan Hirotning Bozori Xush – sharqiy darvozasi tashqarisida, Masjidi jome’ning janubiy qismida barpo etilgan katta xonaqoh – “Xonaqohi shayxulislom mavlono Shahobiddin Bistomiy” va uning qarshisida Xonzodabegim madrasasi mavjud bo’lganligi ma’lum.

Hijriy 798/1395-yilda Amir Temur Shimoliy Eron, Iroq va Ozarbayjonni Mironshoh mirzoga topshiradi. Hijriy 799/1397-yil bahor oyilarida Xuroson taxtiga Shohrux mirzo tayinlanadi. Sohibqiron vafotidan so’ng, Shohruh mirzo o’z saltanat poytaxtini Samarqanddan Hirotga ko’chiradi va bu yerda misli ko’rilmagan darajada ulkan obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi.

O’rta asrlarda Hirot shahri ma’muriy jihatdan bir nechta tuman – “bo’luk” (ko’plikda “bo’lukot”)larga bo’lingan edi. Temuriylar yozma manbalarida ularning 11tasi qayd qilingan: “Bo’luki Alinjon”, “Bo’luki Guzora”, “G’urvon va Pashton” (“G’urvonu Bashton”), “Buluki Injil”, “Kambaroq” (“Bo’luki Kamrak”), “Parvona va Havodashtak” (“Parvonu Havodashtak”), “Sabakor” (“Bo’luki Sabka”), “Bo’luki Sanoyon”, “Bo’luki Turon va Tuniyon” (“Turoniyonu Tuniyon”), “Udvon va Tizon” (“Advodu Tizon”) va “Bo’luki Xiyobon”. Har bir “bo’luk” o’z navbatida mahallalardan tashkil topgan. Masalan: “Mahallayi Xoja Shihob”, “Mahalayi Shamrezon” (“Shag’am quyuvchilar mahallasi”), “Mahalayi Miron” (“Amirlar mahallasi”), Sodot mahallasi (Guzora bo’lukida) va h.k. Shahar tashqarisida ham qishloq va mayda aholi maskanlari ko’p bo’lgan. Manbalarda bu joy nomlari “qishloq” ma’nosini anglatuvchi arabiy – “qar’ya” (“qarya”) va forsiy – “deh” so’z birikmalari bilan uchraydi. Masalan: “Qaryayi Jabroil”, “Qaryayi Obi Jalil” (Hirotning shimoli-g’arbidagi qishloqlar), “Qaryayi Haimayido’zon” (chodir tikuvchilar qishlog’i); Dehi Minor, Dehi Miriy (Hirotning janubi-g’arbidagi qishloqlar) va h.k.

X–XI asr manbalarida Hirot qal’asining darvozalari to’rtta bo’lganligi qayd qilingan bo’lsa, keyingi asrlarda ularning soni beshtaga yetganligini kuzatish mumkin. Bular albatta mo’g’ullar istilosidan keyingi shaharning tadrijiy rivojlanishi bilan bog’liq. Temuriylar manbalarida ham Hirotning quyidagi 5 ta darvozalari nomlari qayd qilingan. Qal’aning sharqiy devorida – “Darvozayi Xush”; g’arbida – “Darvozayi Iroq”; janubda “Darvozayi Feruzobod”; shimoliy devor esa ikkita darvozaga ega edi, biri shimoli-g’arbdagi “Darvozayi Malik” (“Maliklar darvozasi”; ba’zan “Darvozayi Maydon” deb ham atalgan) bo’lsa, ikkinchisi “Darvozayi Qipchoq” qal’aning shimoli-sharqiy devoridan o’rin olgan edi. Mahmud ibn Valiy har ikki shimoliy darvozani “Baromon darvozalari” deb atalishini ham eslatadi. Shuningdek, Hirot qal’asining burchaklarida har biri to’rt ustundan iborat mustahkam burj-minoralar (“Burji Ali Asad”, “Burji Xarik”, “Burji Xokistar” yoki “Burji Xok” va “Burji Samoniyon (Shamoniyon)”) bilan himoyalanganini ta’kidlaydi¹.

¹ Mahmud ibn Vali. More tayn... – B.82.

Hirotda arki (ya'ni Ixtiyoriddin qal'asi) Hirotda shahar qal'asining shimoliy qismida Malik va Qipchoq darvozalarining orasida joylashgan “Bog'i Shahr” bilan tutashgan o'ziga xos qal'a ichidagi qal'a edi. Hijriy 818/1415-yillarda Ixtiyoriddin qal'asi Shohruh tomonidan mustahkam harbiy inshootga aylantiriladi. Ark maydoni yanada kengaytiriladi va undagi burjlar soni o'n ikkitaga yetkazilib “Duvozdah burj” (“O'n ikki burj”) nomini oladi. Mazkur burjlarning har biri ham alohida nomlangan, ulardan eng kattasi Hirotda qal'asining Malik darvozasi yonida bo'lgani uchun “Burj al-Malik” (“Maliklar minorasi”) deb atalgan. Bobur mirzo Hirotda bo'lgan kezlari ushbu mudofaa inshootlarini borib ko'rganini yozadi: “Yigirma kunkim, Hirida erdim, har kunda ko'rmagan yerlarni o'tlanib sayr qilur edim... Duvozdah burj... qal'aning besh darvozasi: Darvozayi Malik va Darvozayi Iroq va Darvozayi Feruzobod va Darvozayi Xush va Darvozayi Qipchoq... andak fursatta sayr qildim”¹. Sharafiddin Ali Yazdiy va Abdurazzoq Samarqandiy keltirgan ma'lumotga ko'ra, shaharda qurilish ishlari olib borayotgan paytda Shohruh mirzo Ixtiyoriddin qal'asining shimoli-g'arbida joylashgan kurtlar davrida mavjud bo'lgan “Bog'i Zog'on” va undagi ko'shk-saroyini ta'mirlatib uni o'z qarorgohiga aylantirgan². Ixtiyoriddin qal'asida zarbxona, temuriy hukmdorlar xazinasi saqlangan, siyosiy maxbuslar uchun alohida zindon ham mavjud bo'lgan. Ark devorlari tosh va qizg'ish pishgan g'ishtlardan qurilgani bois, Bobur uni mahalliy aholi orasida “Olaqo'rg'on” (“Qizil qal'a”) deb ham atalishini ta'kidlaydi: “Mirzolarning ona egachi-singil va haramlar va xazoyini tamom Qal'ayi Ixtiyoriddinda edikim, Olaqo'rg'ong'a mashhurdur”³. Qal'a havfsizligi uchun alohida mansab-lavozimlar joriy qilingan. Hirotda qal'asiga *dorug'a*, Arkka esa *kutvol* mas'ul bo'lgan. Shohruh davrida amir Bobo Mas'ud, Muso Mirak, mavlono Ahmad yasovur kabi shaxslar Ixtiyoriddin arkida kutvollik vazifasida bo'lganligi manbalarda qayd qilingan⁴.

Xondamir qurilishi 813-yil rabi ul-oxiri (1410, avgust)da boshlangan Shohruh mirzoning madrasasi va xonaqohi haqida ma'lumot beradi. Bu ikki imorat Hirotda qal'a devorlarining ichida, Qal'ayi Ixtiyoriddinning sharqiy tomoniga yondosh bo'lgan va “ozgina vaqt ichida g'oyatda go'zal va murakkab usulda qurib bitkazilgan. Shu bilan birga Hirotda shimoli-sharqida joylashgan “Bog'i Safid”ning tarhini chizdilar (ya'ni qurilishiga asos solinadi)”⁵. Tarixchi Shohruh madrasasida mavlono Jaloliddin Yusuf Ubahiy (833/1430), mavlono Nizomiddin Abdurahim Yor Ahmad, Xoja Nosiriddin Lutfulloh ibn Xoja Azizulloh, mavlono Burhoniddin Atoullah ar-Roziy (vaf.902), “Mavlonozoda Abhariy” nomi bilan tanilgan Xoja Imodiddin Abdulaziz kabi zamonasining yetuk allomalari mudarrislik qilganini ham eslatib o'tadi.

Hijriy 820/1417-yilda Shohruhning rafiqasi, Mirzo Ulug'bekning onasi mahdi ulyo Gavharshodbegim (1378–1457) ham o'z madrasa va masjidini barpo etadi. Qurilish ishlariga mashhur me'mor Qavomiddin Sheroziy (vaf.1438) boshchilik qiladi. Bu ikki obida Hirotda qal'asining shimolida Musallo maydonining qarama-qarshi tomonida joylashgan edi. Garchi ohirgi qurilish

¹ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma / Tahrir hay'ati: A.Abdurashidov, B.Alimov va boshq.; P.Shamsiyev, S.Mirzayev va Eyji Mano (Yaponiya) nashrlari asosida qayta nashrga tayyorl.: S.Hasanov; Mas'ul muharrir V.Rahmonov. – T.: “Sharq” NMAK, 2002. 191b varaq; Keyingi o'rinlarda, ushbu maqolada uchraydigan “Boburnoma”dan olingan iqtiboslar mazkur nashrdan qayd qilingan betlarga emas, balki shartli ravishda qo'lyozma varaqlariga havola qilishni lozim topdik.

² “Bog'i Zog'on” hududidagi ta'mirlash ishlari 814/1411–1412-yilda olib borilgan. Jo'yi Injil anhuri orqali sug'orilgan ushbu bog'ning atroflari devorlar bilan o'ralgan; sharqiy qismi Gavharshodbegim musallosiga tutashgan edi. Keyinchalik ushbu bog'da Temuriy hukmdorlarning to'y marosimlari ham o'tkazib turilganligi manbalarda qayd qilingan.

³ Boburnoma. 206 a varaq.

⁴ Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn: II Jild. 2-3 qismlar: 1429-1470-yil voqealari / Fors tilidan tarjima, so'zbohi va izohlar muallifi A.O'rinboev. Geografik nomlar izohli ko'rsatkichi O.Bo'riyev. Tarixiy shaxs, voqea va atamalarga izohlar muallifi G'.Karimov va E.Mirkomilov. – T.: O'zbekiston, 2008. – B. 70, 71.

⁵ Xondamir G'iyosiddin. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar: (Bashar ahli siyaratidan xabar beruvchi do'st) / Fors tilidan tarjima, muqaddima mualliflari J.Hazratqulov, I. Bekjonov. – T.: O'zbekiston, 2013. – B.364, 466, 1083, 1096.

ishlari 841/1437–1438-yilda yakunlangan bo‘lsa-da, madrasadagi ilmiy faoliyat hijriy 827/1423-yildan boshlab yuborilgan edi. Gavharshodbegim jome’ masjididagi qurilishlar esa 836/1432–1433-yilda nihoyasiga yetkazilgan. Bu masjid Gavharshodbegim madrasasining janubida joylashgan bo‘lgan. Shuni ta’kidlab o‘tish joyizki, bu davrda Gavharshodbegim madrasasining shimoli-g‘arbiy qismida unga yondosh ravishda qurilgan temuriylar hilxonasi ham bor edi. Malikaning fojeali o‘limidan so‘ng, uning jasadi ushbu xilxonaga dafn qilinadi va endilikda “Gavharshodbegim maqbarasi” nomini oladi. Maqbara majmuasida Gavharshodbegim qabridan tashqari uning otasi amir G‘iyosiddin tarxon (vaf.827/1424), akasi amir Hasan So‘fi tarxon (vaf.827/ 1424), Shohruh mirzoning o‘g‘illaridan Boysunqur (1397–1433) va Muhammad Jo‘kiy (1402–1445); Boysunqur mirzoning o‘g‘illari Sulton Muhammad (1418–1452) va Alouddavla (1417–1460) hamda uning o‘g‘li Ibrohim mirzo (1440–1459) dafn etilgan. 850-yil 25-zulhijja (1447, 22-mart) oyida Shohruh mirzo vafot etgach, uning jasadi ham ma’lum vaqt ushbu xilxonaga qo‘yilgani, 852/1448–1449-yilda esa Mirzo Ulug‘bek uni Samarqanddagi Amir Temur maqbarasiga qayta dafn etgani ma’lum.

Hijriy 829–830/1424–1425-yillarda Shohruh mirzo Hirotidan 6 km shimoli-sharqda joylashgan Gozurgoh tog‘i etaklaridagi mashhur alloma Xoja Abdulloh Ansoriy (1006–1088) mozorini obod etib uni ulkan ziyoratgohga aylantiradi¹. Manbalarda ushbu joy “Mozori piri Hirot”, “Hazirayi Xoja Abdulloh Ansoriy” deb ham qayd qilingan. Moliyaviy ta’minotini saqlash maqsadida, Shohruh ushbu ziyoratgohga qo‘shimcha yer-mulklarni ham vaqf qildiradi. Ushbu hududdagi qadimgi obidalaridan Shayx Ismoil So‘fiy raboti va Gozurgoh masjidi ham qayta tiklanadi. Temuriylar davrida, hususan Sulton Abusaid mirzo tomonidan qazdirilgan Jo‘yi Sultoniy anhuri orqali Gozurgoh atrofidagi dasht yerlar o‘zlashtirilib obod etilgan. Xondamir mazkur hududda joylashgan “Bog‘chai Gozurgoh” haqida eslatadi va “nafaqat Xuroson yurtida, balki olamning aksari obod yerlarida bundayin suvi mazalik va havosi latif jannatmisol joy topilmaydi”², deb ta’rif beradi. Keyinchalik Alisher Navoiy³ ham Gozurgoh ziyoratgohini obod qilishga katta e’tibor qaratadi. 1490–1494-yillarda Gozurgohning Namakdon majmuasi yaqinida kichikroq bog‘ ham barpo etadi. “Boburnoma”da “Alisherbekning bog‘chasi” deb qayd qilingan ushbu bog‘ hozirda Bog‘i Nav deb ataladi. Bobur 1506-yili Hirotning diqqatga sazovor joylari bilan tanishganda Gozurgoh majmuasini ham ziyorat qiladi⁴.

Shohruh davrida Hirotning “Bo‘luki Xiyoboni”da, imom Faxriddin Roziy (Imom Faxr)⁵ maqbarasi obod qilinadi. Bu maskan davr o‘tishi bilan takomillashib borib, ko‘rinishi jihatidan Samarqanddagi Shohi-Zinda maqbaralar majmuasini eslatuvchi ulkan me’moriy ansamblga aylanadi. Temuriylar zamonida ushbu qabiristonga davrning mashhur allomalari, qozi, imom va shayxlari dafn

¹ Fasix Havofiy ma’lumotlariga ko‘ra qurilish ishlari hijriy 829-yil muharram (1424, noyabr-dekabr) oyida boshlanib, 830-yil muharram (1425, noyabr-dekabr) oyida yakunlangan. q.: Fasix Ahmad Havofiy. Mujmali Fasihiy: Fasih to‘plami / Tarjima, kirish, izohlar va ko‘rsatkichlar D.Yu.Yusupovaniki. – T.: Fan, 2018. – B. 275, 277.

² Xondamir. Xulosat ul-axbor.

³ Hirotidagi Alisher Navoiy tomonidan qurilgan obidalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar alohida tadqiqot mavzusi bo‘lgani bois mazkur maqolada ular haqida to‘xtalib o‘tmadik – A.Sh.

⁴ “Bu yigirma kunda mashhur sayrgohlardin... Gozurgoh va Alisherbekning bog‘chasi... Gozurgohning xiyoboni... bog‘ini andak fursatta sayr qildim” – deb yozadi Bobur. Qarang: Boburnoma, 191ab varaqlar.

⁵ Faxriddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ibn Husayn Roziy (543/1149–606/1209) – g‘uriylar va xorazmshohlar davrida yashagan mufassir, shayx ul-islom, faylasuf va voiz. Ray va Marog‘ada tahsil olib, G‘azna, Buxoro, Samarqand, Nasaf, Xorazm, Banokat, Marv va Hirot shaharlarida yashagan. Madrasalarda e’tiqod, aqida, tafsir, fiqh, kalom, usul, tarix, adabiyot, falsafa fanlaridan mudarrislik qilgan. Ibn Sino va Abu Nasr Forobiy ta’limotlari bo‘yicha ilmiy bahslarda qatnashgan. Ma’lum muddat Hindistonning Panjob viloyatida faoliyat olib borgan, keyinchalik Hirotga qaytib umrining oxirigacha shu yerda yashagan. Asosiy asarlari: “Mafotih ul-g‘ayb” tafsiri, “Jome’ ul-ulum”, “Munozarot ul-alloma Faxriddin”, “Kitob al-muhassal afkor al-mutaqaddimin val mutaaxxirin”, “Manoqib al-Imom ash-Shofiiy”, “Kitob al-mahsul”, “Chahordah risola” va boshqalar.

qilinib, qabrlar ustiga bir qancha gumbazli haziralari barpo etiladi. Bobur Hirotda bo‘lgan vaqtlarda Imom Faxrdagi ushbu maqbaralarni ham ziyorat qilganini qayd etadi¹.

Shohruh mirzo tomonidan hijriy 838/1434-yilda Sabzibaromon (Baromon) madrasasi² ta’mir lanib, unga Gavharshod begim masjidining imom hatibi mavlono Shamsiddin Muhammad Avhad (vaf.1435), amir Sadridin Yunus Husayniy mudarrislik qilgan³.

Shohrux zamonida Hirotda uning vazir va amirlari tomonidan ham bir qancha obidalar qurilgan. Jumladan, 809/1406–1407-yillarda Shohruh buyrug‘i bilan Hirot shimolida, Muxtor tog‘i etaklarida vazir Solor Simnoniy tomonidan katta yidgoh (namozgoh) qurilgan. Shu yilning o‘zida Udvon va Tizon bo‘lukida Xoja G‘iyosiddin tomonidan qazdirilgan Fathobod kanali ham tantanali ochilgan edi⁴.

Hirotda Jaloliddin Muhammad Qoiniy (vaf.1435)ning ham madrasasi bo‘lgan edi. Xalq orasida “Madrasai Peshburd” nomi bilan mashhur bo‘lgan ushbu obida Hirot Jome’ masjidining janub tomonida edi⁵.

Sohibqironga xizmat qilgan, Shohruh mirzoning ustoz ulug‘ amir **Alouddin Aliko ko‘kaldosh** (vaf.844/1440)ning Xiyobon hududida o‘z madrasasi va xonaqohi (bular Puli Jo‘yi Nav yaqinida) bo‘lgan⁶. Xondamirning yozishicha bu madrasa gumbazi ostiga keyinchalik Aliko ko‘kaldoshning o‘zi ham dafn etilgan. Madrasada Hirot jome’ masjidining imomi Nuridin Nurulloh Xorazmiy (vaf.838/1435) mudarrislik qilgan⁷. Hirotdan besh farsax (taxminan 30 km) shimolda Alikabekning raboti (“Raboti Aliko ko‘kaldosh”) ham bo‘lgan. Bu rabot “keng va katta yerdan iborat bo‘lib, to 949 (1542–1543) yilgacha yetib kelib, bu imoratning xonalari buzila boshlagan”⁸. Alisher Navoiy o‘zining “Vaqfiya”sida Hirotning Iroq darvozasi tashqarisida Alikabek hammomi bo‘lganligini ham qayd qiladi. Zero, Navoiyga qarashli do‘kon “Iroq darvozasi toshida Alikabek hammomig‘a o‘tru (yaqin)”⁹ bo‘lgan edi. Shubhasiz, Aliko ko‘kaldoshning qurilish borasida tajribasi katta bo‘lgan. Zero, Shohrux hukmronligining dastlabki zamonlarida, Abdurazzoq Samarqandiy ma’lumotiga ko‘ra 813/1410-yilda Aliko ko‘kaldosh Shohruh mirzo tomonidan Marv va uning atroflarini obod qilish, ariq va to‘g‘onlar qurishga mas’ul etib¹⁰, keyinchalik ham 842/1438–1439-yilda Marvda “savobli qurilish inshootlarini”¹¹ bunyod etish uchun tayinlanganligi bejizmas edi.

Manbalarda Sohibqiron zamonida unga xizmat qilgan, Shohruh mirzoning nomdor amirlaridan **Jaloliddin Feruzshoh** ibn Arg‘unshohning ham saltanat obodonchilik ishlarida alohida o‘rni bo‘lganligi qayd qilingan. Abdurazzoq Samarqandiy ma’lumotiga ko‘ra, u Shohruh farmoni bilan Hirotni qayta qurilishida mas’ul rahbar etib tayinlangan¹². Xondamir ham Feruzshohning bunyodkorlik faoliyati hadida: “Saltanat poytaxti Hirotning ichkari va tashqarisida, boshqa mamlakat

¹ Boburnoma. 191a varaq.

² Sabzibaromon (Boromon) madrasasi – 751/1350-1351-yilda Malik Muizziddin Husayn ibn G‘iyosiddin Kurt (hukm.y. 1332–1370) tomonidan Hirotning shimoliy (Maliklar) darvozasi tashqarisida barpo etilgan madrasa. q.: Mujmali Fasihiy. – B.98.

³ Matlai sa’dayn. II Jild. 2-3 qismlar. – B.54.; Habib us-siyar. – B.1100.

⁴ Mujmali Fasihiy. – B.187.

⁵ Habib us-siyar. – B.479.

⁶ Aliko ko‘kaldoshning yana bir masjidi Samarqand Registonidagi Mirzo Ulug‘bek tomonidan qurdirgan Masjidi Muqatta’ga yondosh edi. Aliko ko‘kaldosh masjidining o‘rni hozir Tillakori madrasasining qarama-qarshi tomonida, Ulug‘bek madrasasining chap tomonida (Registon maydonini kuzatuv maydonchasi va pog‘onali zinalar o‘rnida) bo‘lgan.

⁷ Mujmali Fasihiy. – B.288.

⁸ Qarang: Habib us-siyar. – B. 439; Matlai sa’dayn. II Jild. 2-3 qismlar. – B.101.

⁹ Qarang: Navoiy Vaqfiyasi: Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. Munshaot. Vaqfiya / Mukammal asarlar to‘plami. 14-jild. T.: Fan, 1998.

¹⁰ Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn va majma’i bahrayn. II Jild. – 1 qism: 1405–1429-yil voqealari / Fors tilidan tarjima, so‘zboshi va izohlar muallifi A. O‘rinboyev. – T.: O‘zbekiston, 2008. – B.171.

¹¹ Mujmali Fasihiy. – B.298.

¹² Matlai sa’dayn. II Jild. 2-3 qismlar. – B. 48.

va viloyatlarida madrasalar, masjidlar, xonaqoxlar, rabotlar va hovuzlar bunyod etib, ularni oxiriga yetkazdi. Shahar va qishloklarda obidalarni ko‘tarishda, daxma va saganalarni ta‘mir etishda, ularni obodonlashtirishda katta xizmatlar qildi”¹ – deb yuksak baho beradi. Feruzshohning Xiyobon hududida Gavharshodbegim masjidining janubida o‘z shaxsiy mablag‘lari hisobiga hijriy 838/1434-yilda qurilgan madrasasi va xonaqohi hamda 848/1444-yilda barpo etilgan masjidi ham bo‘lgan. Uning yana bir madrasasi Xiyobon yo‘lida Puli Injilga yaqin yerda bo‘lgan va keyinchalik amirning o‘zi ham mazkur “madrasa gunbazi ostiga” dafn qilingan². Manbalarda Feruzshoh madrasalarida shayhulislom mavlono Shamsiddin Muhammad Kirongiy (vaf.838/1435) mudarrislik qilgani qayd qilingan³. Bundan tashqari Bo‘luki Xiyobonning g‘arbida amirga tegirshli “Chorbog‘i amir Jaloliddin Feruzshoh” deb nomlangan bog‘ ham mavjud bo‘lgan. Jaloluddin Firuzshohning akasi Isfahon hokimi Nosiriddin Xovandshoh ibn Arg‘unshoh 1435-yilda Rayda vafot etgach, uning jasadi Hirotga keltirilib, Abdurazzoq Samarqandiyning xabar berishicha, Xiyobon ko‘chasida “bag‘oyat go‘zal qilib ishlangan gunbaz tagiga dafn qilingan”⁴. “Gunbazi Nosiriddin Xovandshoh” deb atalgan ushbu maqbara ham aftidan Jaloluddin Firuzshoh tomonidan qurilgan.

Amir Temurning nomdor amirlaridan biri, Shohrux zamonida ham katta mavqe‘ga ega bo‘lgan amir **G‘iyosiddin Shohmalik** (vaf.829/1426)ning ham Xuroson hududida bir nechta obidali bor edi. Bu tajribali sarkardaga 1413-yilda Shohrux Xorazm viloyatini suyurg‘ol qilib bergan edi. Zero saltanatning shimoliy sarhadlari Dashti Qishpoqdan bo‘lgan havfu hatardan xoli bo‘lmagan edi. Manbalarda Shohmalikning harbiy faoliyatidan tashqari, bunyodkorlik ishlari haqida ham ma‘lumotlar uchraydi. Uning Mashhadda, Imom Rizo majmuasi yonida qurilgan o‘z madrasasi bor edi. Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir va boshqa davr tarixchilarining ma‘lumotlariga ko‘ra amir Shohmalik Xorazmda vafot etgach (1426), o‘g‘li Ibrohim sulton tomonidan Mashhadi Muqaddasga keltirilib, o‘z madrasasiga dafn qilingan. Hirot hududida esa u bilan bog‘liq masjid, bog‘ va ikki rabot mavjudligi qayd qilinadi. “Masjidi Darbandi Bozori Iroq” deb nomlangan Shohmalikning masjidi Hirot qal‘asining ichida, aniqrog‘i Bozori Iroq hududidagi Nizomiya madrasasi va Falakkiddin masjidining⁵ yonida barpo etilgan. Hirot hududida “Bog‘i Amir G‘iyosiddin Shohmalik” bog‘i bo‘lgan. Fasix Xavofiyning yozishicha 844-yil 12-sha‘bon (1441, 6-yanvar) oyida mazkur bog‘ hududiga Boysunqur mirzoning qizi Oisha begim (Oisha begika) dafn qilingan⁶. Shohmalikning rabotlaridan biri Hirotning g‘arbidagi Kusuya qasabasida bo‘lgan bo‘lsa⁷, ikkinchi Turbati Jomda bo‘lgan va har ikkisi “Raboti amir Shohmalik” deb atalgan. Amir Shohmalik tomonidan barpo etilgan boshqa obidalar haqida ma‘lumotlar yozma manbalarda deyarli uchramaydi. Xondamir faqatgina “Xuroson, Movarounnahr va Xorazm diyori atrofida xayrli ishlarga qo‘l urib, madrasalar, xonaqohlar, masjid va rabotlar, hovuzlar qurib, o‘zidan yodgorlik qoldirdi”⁸, deb umumiy ma‘lumotlar bilan cheklanadi.

Hirotida Amir **Kamoliddin Farmonshayh** ibn Malikshoh (vaf.1439)ning ham o‘z madrasasi bo‘lgan edi. Hijriy 831/1427-yilda barpo etilgan bu madrasa Jo‘yi Nav ko‘prigi (Puli Jo‘yi Nav)ga yaqin joyda, Kurtlar sulolasi davrida qurilgan ikki xonaqohga yondosh ravishda bunyod etilgan edi⁹.

¹ Habib us-siyar. – B.442.

² Matlai sa‘dayn. II Jild. 2-3 qismlar. – B. 171.

³ Mujmal Fasihiy. – B.291.

⁴ Matlai sa‘dayn. II Jild. 2-3 qismlar. – B.51.

⁵ Fasix Xavofiyning xabar berishicha zulhijja oyining 29 kuni (1441, 21-may)da Falakkiddin masjidining minorasi qo‘lab, Nizomiya madrasasining bir qismini buzib yuboradi. Madrasa hovlisidagi bir qancha toliblar xarobalar ostida qolib xolok bo‘lishadi. q.: Mujmal Fasihiy. – B.303.

⁶ Mujmal Fasihiy. – B. 303; yana q.: Matlai sa‘dayn. II Jild. 2-3 qismlar. – B.86.

⁷ Matlai sa‘dayn. II Jild. 2-3 qismlar. – B.416.

⁸ Habib us-siyar. – B.417

⁹ Matlai sa‘dayn. II Jild. 2-3 qismlar. – B.95.

Amir Jaloliddin Chaqmoq Shomiyning ham 833/1429–1430-yilda qurilgan madrasasi bor edi. Bu madrasa Xiyobon bo‘lukida Aliko Ko‘kaldosh madrasasining janubida, Kamoliddin Farmonshayh madrasasining g‘arbida joylashgan edi. Xondamir bu maqbara sahnida Xoja Mavlono Samarqandiy (vaf.876/1472) dafn etilganini yozadi¹.

Shohruxning amiri **Uvays ibn amir Oqbuqo** (vaf. 844/1440) ham Xiyobonning sharqidagi mozorlarni obod qilib, keyinchalik uning o‘zi ham mazkur hududda joylashgan Sulton Abusaid mirzo imoratining janubida, “Hazirayi amir Uvays bin amir Oqbuqo” deb atalmish maqbaraga dafn qilgan².

Jo‘yi Nav ko‘prigi (Puli Jo‘yi Nav)dan shimoli-g‘arbda, Iydgohning janubida Shayh Zayniddin Abubakr Xavofiy (vaf. 838/1434) mozori joylashgan edi. Ushbu mozor Shohruxning vaziri **Xoja G‘iyosiddin Pir Ahmad Xavofiy** tomonidan obod qilinib keyinchalik uni o‘zi ham shu joyga dafn etilgan. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha bu “oliy bir imorat koshiy, lojuvard va zarhallar bilan go‘zal naqshlar ishlatgan” holda bezatilgan³.

Shuningdek, bu davr manbalarida Hirotning Feruzobod darvozasiga tutash bo‘lgan “Gunbazi Amir Muhammad Sultonshoh” maqbarasi haqida ham ma‘lumot uchraydi. Shohrux tomonidan hijriy 847/1443-yilda ta‘mirlangan bu gumbaz Amir Temur va Mironshoh mirzoga sadoqat bilan xizmat qilgan amir Shamsiddin Muhammad Sultonshoh barlos (vaf.794/1391–1392)ning qabri ustiga barpo etilgan edi⁴.

Hirot va uning atroflarida joylashgan ko‘plab mozor va maqbaralar haqida ma‘lumotlar manbalarda ko‘p eslatilgan (jumladan, Mozori Piri Sesadsola⁵, Mozori Bobo Hasan Abdol, Mozori Xoja Rushnoyi, Mozori Shahidon, Shayh So‘fi Ali va Chihilgaz mozori⁶, Go‘ristoni G‘aribon, Imom Quzot go‘ristoni⁷, Xoja Toq go‘ristoni⁸, Piri Mujarrad – Muhammad Abulvalid ibn Ahmad maqbarasi, Shayx Bahouddin Umar maqbarasi⁹, Jaloliddin Abu Yazid Puroniy (vaf.862/14) maqbarasi¹⁰, Shahzoda Abdullo ibn Muoviya maqbarasi va h.k.). Shahar sharoitida qabriston va xaziralarning bu qadar ko‘p va zich joylashganligi, bizning nazarimizda quyidagi omillar bilan bog‘liq. Birinchidan temuriy hukmdorlarning ushbu ziyoratgohlarni obodonchiligi bilan bog‘liq izohlansa, ikkinchidan esa bu davrda Hirot hududida tarqalgan vabo (toun, tovun) kasalligi bilan bog‘liqdir. Abdurazzoq Samarqandiy (va boshqa bir qator tarixchilar ham) Hirotida tarqalgan hijriy 838/1435-yilgi vabo haqida quyidagi ma‘lumotlarni keltiradi: “Tangrining irodati bilan shahar va uning bo‘luklarida umumiy vabo va toun kasali shu qadar qo‘rqinchli voqe bo‘ldiki, uning sharhi qalamga olib yozish imkonidan tashqaridir. Jumod ul-uxro (1435, 2–30-yanvar) va rajab (31-yanvar – 1-mart) oylarida bu illat shahar va bo‘luklarda paydo bo‘la boshladi. Xaloyiq bunga o‘xshash illatni hargiz ko‘rmagan va ilgari ham eshitmaganligidin ojiz va hayron bo‘lib qoldilar. Maraz va illat kundan kunga ko‘payib boraberdi. Kishi to‘satdan boshi og‘rib, kuydiruvchi isitmaga uchrar, badanida bir no‘hotdek yoki undan kichikroq yoki kattaroq bir dona paydo bo‘ladib bir-ikki kundan

¹ Habib us-siyar. – B.654.

² Matlai sa‘dayn. II Jild. 2-3 qismlar. – B.102

³ Matlai sa‘dayn. II Jild. 2-3 qismlar. – B.53, 342. Yana q.: Habib us-siyar. – B.478, 546.

⁴ Matlai sa‘dayn.– B. 138, 692; Mujmali Fasihiy. – B.150.

⁵ Xoja qozi Mas‘ud Qumiy ushbu mozorda dafn etilgan – q.: Habib us-siyar. – B.1077, 1087; Alisher Navoiy. Majolis un-nafois / MAT. 9-jild. T.: 2012.

⁶ Habib us-siyar. – B.651, 1071.

⁷ Alisher Navoiy. Majolis un-nafois / MAT. 9-jild. T.: 2012.

⁸ Shayx Abu Abdulloh Toqiy mozori. Bobur mirzo ushbu joyni ziyorat qilgan edi. q.: Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat /MAT. 17-jild. T.: Fan, 2000; Boburnoma, 191b varaq.

⁹ Hirot Iydgohining shimolida Abulqosim Bobur davrda Shayx Bahouddin Umar (vaf.857/1453) qabri ustiga barop etilgan maqbara. Bobur mirzo ushbu maqbarani ham ziyorat qilganini yozadi – q.: Boburnoma, 191a varaq.

¹⁰ Sulton Husayn mirzo tomonidan Jaloliddin Abu Yazid Puroniy (vaf.862/14) qabri ustiga barpo etilgan maqbara – q.: Habib us-siyar. – B.570.

keyin tangri rahmati xuzuriga yetishardi. Kattayu kichik aholidan ko‘plari vatanni tark etishni ixtiyor qilib, atrof-chetlarga chiqib ketdilar va ularning ko‘plari salomat qaytib keldilar. Bu illat sha‘bon (1435, 2–30-mart) va ramazon (31-mart–29-aprel) oylarida tug‘yon qilib, shavvol (30-aprel – 28-may) va zulqa‘da (29-may – 27-iyun) oylarida shu darajagacha yetdiki, shaharda va bo‘luklarda... bir kunda o‘n ming odam shu illat tufayli dunyodan o‘tdi... hammollar tobutsiz ko‘tarib chiqqanlaridan tashqari, yetti yuz tobutni shahar darvozalaridan olib chiqqanlar. Ko‘p jasadlarni ulovlarga yuklab... chukurliklarga tashlab, ustidan tuproq tortib berkitardilar, shuningdek shaharning o‘zida ham shu nav‘da dafn qilgandilar. Bo‘luklarda ham bu holat ko‘p tarqalgandi, (qurbonlar) adadi jihatidan shaharga nisbatan ziyoda bo‘lgandi”¹. Natijada Hirot aholisining katta qismi, shuningdek, davrning taniqli ulamolari, me‘mor va hunarmandlari hamda boshqa taniqli arboblari bu xastalikdan halok bo‘lgan edilar. Manbalarda mahalliy hokimliklarning vabo tarqalishiga qarshi olib borgan chora tadbirlarining samarasizligi kuzatiladi. Ba‘zi tarixchi olimlar bu xolni hukmdorning vabo tarqalgan vaqtda shaharda bo‘lmagani bilan izohlaydilar. Haqiqatdan ham kasallik tarqalishidan uch oy oldin, 838-yil rabiussuniy oyining 2 kuni (1434, 5-noyabr)da Shohruh mirzo Ozarbayjon yurishiga ketgan edi². Qolaversa, shaharda tabib va shifoxonalar ham yetarli darajada bo‘lmagandi. Shohruh davridagi shifoxonalar haqida manbalar faqat uning birgina “Dor ush-shifo”si bo‘lganligini qayd qiladi. Bu imorat Hirot qal‘asining tashqarisida, Ko‘handiz tepaligining janubida joylashgan edi. Asosiy tibbiyot maskanlari esa, 1435-yildan keyin qurila boshlanganini kuzatish mumkin.

Darhaqiqat, vabodan Hirotning shuqadar ko‘p olimu fuzalolari nobud bo‘ldiki, davr tarixchilari ularning nomma-nom sanashga ojiz va “tariflashga dengiz siyohi ham yetmasligini” mubog‘ali ravishda ta‘kidlashadi. Hirot hududida yashab ijod etgan hamda vabodan halok bo‘lgan bu olimlarning nomini tarixda qoldirish va abadiylartirish uchun temuriy humdorlar hattoki, alohida tarix va risolalar yozishni buyurishgan. Misol uchun, Asiliddin Abdulloh Voiz Hiraviy (vaf.1487–1488) o‘zining Sulton Abusaid mirzoga bag‘ishlagan “Risolayi mazoroti Hirot” asarida Hirotning muqaddas qadamjolari haqida yozar ekan 209 ta ziyoratgoh va qabrlar haqida batafsil ma‘lumotlarni jamlashga harakat qilgan.

Kelgusida bunday ofatlarni oldini olish va bartaraf etish maqsadida, temuriy hukmdorlar tomonidan keskin choralar olib borilganligi manbalarda qayd qilingan. Shaharda birin-ketin qo‘shimcha shifoxonalar qurila boshlangan, madrasalarda talabalarga tabobatga oid bilimlarni berish yanada kuchaytirilgan. Hirotida, 844/1440-yildan “Dor ush-shifoyi Mahdi ulyo Milkat og‘o”, 862/1457-yildan “Dor ush-shifoyi Abdulloh Amr”, 905/1500-yildan “Dor ush-shifoyi Sulton Husayn” (Mirzo Shohruh shifoxonasining janubida), 880/1475-yilda “Dor ush-shifoyi Alisher (Navoiy)” faoliyat ko‘rsata boshlangan. 905/1500-yilda “Dor ush-shifoyi Shohruh” ham ta‘mirlanib aholiga xizmat ko‘rsatishni davom etgan. Temuriylar davri manbalarida bu maskanlarda tabiblik qilgan va ayni vaqtda madrasalarda ham mudarrislik qilgan ko‘plab alloma nomlari qayd qilinadi (mazkur maqolada ular haqida to‘xtab o‘tmadik – A.Sh.).

Manbalarda Shohruh davrida Hirot bir necha bor tabiiy ofatlarni ham boshidan kechirgani qayd qilingan. 818/1415 va 843/1339–1440-yillarda Xurosonda shu qadar kuchli yomg‘ir yog‘diki, Harirud daryosi va Hirotidagi anhorlar toshib imoratlarning aksariyati vayron bo‘lgan³. Ayniqsa Jo‘yi Injil⁴ yoqasidagi bog‘ va obidalar katta talofot ko‘rgan. Zero, birgina Injil anhoridan 40ga yaqin

¹ Matlai sa‘dayn. II Jild. 2-3 qismlar. – B.52-53. Yana qarang: Habib us-siyar. – B.433, 612; Mujmali Fasihiy. – B.292.

² Qarang: Mujmali Fasihiy. – B.293.

³ Matlai sa‘dayn. II Jild. 2-3 qismlar. – B.285; Mujmali Fasihiy. – B.300.

⁴ Jo‘yi Injil (Injil arig‘i) – Hirotidagi eng qadimgi va eng katta anhor (uzunligi 200 km, kengligi 2–5 m). Manbalarda X asrdan tilga olingan. Anhor Harirud daryosidan olinib, shaharning shimoliy hududlari orqali g‘arbga qarab oqadi. Anhorning katta qismi temuriylar davrida Hirotning “Buluki Injil” nomli tumanidan oqib o‘tgan. Injil nomining kelib chiqishi VI asr manbalarida qayd qilingan Hirotidagi qadimgi nasroniy (nestorian) jamoalar faoliyati bilan bog‘liq. Injil

tarmoqlar vositasida 6000 ga dan ziyod maydon (jumladan Bog‘i Baland, Bog‘i Jahonoro, Bog‘i Zog‘on, Bog‘i Nazargoh, Bog‘i Safed, Bog‘i Xiyobon, Bog‘i Shahr va boshqalar) sug‘orilardi.

Xulosa qilib aytganda, temuriylar davrida Xurosonning poytaxti bo‘lmish Hirotning shaharsozlik tarixi bevosita Shohruh mirzoning bunyodkorlik faoliyati bilan bog‘liq. Bu davrda ko‘plab me‘moriy obidalar barpo etilib, shahar yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilgan. Shahar obodonchiligiga nafaqat temuriylar xonadoni, balki davlat amaldorlari va taniqli arboblarning ham sezilarli hissa qo‘shganlar. Bu hayrli ishlar keyingi davrlarda ham hukmdorlar tomonidan amalga oshirilib, temuriylar bunyodkorligining o‘ziga xos an‘anasiga aylangan.

Foydalangan adabiyotlar

1. Hamd-Allāh Mustawfi of Qazwīn. The Geographical Part of the Nuzhat al-Qulūb // Translated by Guy Le Strange. – London. Leyden: E.J.Brill. Imprimeriye Oriyentale. 1919.
2. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa‘dayn va majma‘i bahrayn. II Jild. – 1 qism: 1405–1429-yil voqealari / Fors tilidan tarjima, so‘zboshi va izohlar muallifi A. O‘rinboyev. – T.: O‘zbekiston, 2008.
3. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn: II Jild. 2-3 qismlar: 1429-1470-yil voqealari / Fors tilidan tarjima, so‘zboshi va izohlar muallifi A.O‘rinboyev. Geografik nomlar izohli ko‘rsatkichi O.Bo‘riyev. Tarixiy shaxs, voqea va atamalarga izohlar muallifi G‘.Karimov va E.Mirkomilov. – T.: O‘zbekiston, 2008.
4. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois / MAT. 9-jild. T.: 2012.
5. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. Munshaot. Vaqfiya / Mukammal asarlar to‘plami. 14-jild. T.: Fan, 1998.
6. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat /MAT. 17-jild. T.: Fan, 2000.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma / Tahrir hay‘ati: A.Abdurashidov, B.Alimov va boshq.; P.Shamsiyev, S.Mirzayev va Eyji Mano (Yaponiya) nashrlari asosida qayta nashrga tayyorl.: S.Hasanov; Mas‘ul muharrir V.Rahmonov. – T.: “Sharq” NMAK, 2002.
8. Maxmud ibn Vali. More tayn otnositelno doblestey blagorodnyx (Geografiya) / Perevod B.Axmedova. – T.: Fan, 1977.
9. Fasih Ahmad Havofiy. Mujmali Fasihiy: Fasih to‘plami / Tarjima, kirish, izohlar va ko‘rsatkichlar D.Yu.Yusupovaniki. – T.: Fan, 2018.
10. Xondamir G‘iyosiddin. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar: (Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi do‘st) / Fors tilidan tarjima, muqaddima mualliflari J.Hazratqulov, I. Bekjonov. – T.: O‘zbekiston, 2013.
11. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. 1-kitob. Muqaddima // Fors tilidan tarjima, so‘z boshi va ilmiy izohlar muallifi Omonullo Bo‘riyev. Shaxs ismlari, joy nomlari, etnik nomlar va atamalar ko‘rsatkichini tuzuvchi Azizjon Sharipov. Mas‘ul muharrir D. Yusupova. – T.: Fan, 2020.

arig‘i yoqasida aholi uylaridan tashqari Gavharshodbegim masjidi va madrasasi (Musallo majmuasi), Abulvalid Billuriy, keyinchalik Boysunqur mirzo, Sulton Husayn mirzo, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy maqbaralari, “Xalosiya” xonaqohi, “Ixlosiya”, Badi‘uzzamon madrasasi va boshqa ko‘plab obidalar joylashgan edi. Jo‘yi Injil ustiga o‘rta asrlarda ko‘plab ko‘priklar ham qurilgan, ulardan eng mashhuri “Puli Injil” deb atalgan. Jo‘yi Injil suvlarini aholi orasida adolatli taqsimlash maqsadida Abdurahmon Jomiy tomonidan “Taqsimoti Haqobi Ob” nomli risola yozgan (hozirda Hirot Suv xo‘jaligi boshqarmasi arxivida saqlanadi). Ushbu risola temuriylar davridan to bugungi kunga qadar suv bilan bog‘liq nizoli masalalarni hal qilishda asosiy dastur ul-amal sifatida xizmat qilgan.

MUNDARIJA		
I SHO‘BA. TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI		
1.	Zuhriddin ISOMIDDINOV. Bizdagi tarjima muammolari	5
2.	Uzoq JO‘RAQULOV. O‘zbek tarjimachiligi istiqbollari	9
3.	Xurram RAHIMOV. Alisher Navoiyning “Munojot” asari tarixi, tabdili va tarjimalari xususida	14
4.	Олимджон КАСИМОВ, Мартаба СУЛТОНЗОДА. Некоторые лингвистические особенности перевода лексем «Шахнаме» на русский язык	17
5.	Ne‘matilla OTAJONOV. Eiji Mano – boburshunos olim	22
6.	Rukhsana IFTIKHAR. Beautification of Mughal women	26
7.	Наталья ФИЛИМОНОВА. Возможности перевода при работе иностранных учащихся с художественным текстом: начальный этап изучения русского языка	30
8.	Kosimboy MAMUROV, Nargiza TILAKOVA Functional syntax and mystical semantics: correlating syntaxemes with sufi concepts in Alisher Navai’s Uzbek and English ghazals	34
9.	Xayrulla HAMIDOV. Muslimbek Yo‘ldoshevning tarjimonlik mahorati	38
10.	Ирода СИДДИКОВА. К вопросу взаимосвязи психолингвистики и художественного перевода	43
11.	Xayrulla HAMIDOV, Zulfizarxon QORAXO‘JAYEVA. Nafisiyning “Jannatning yarim yo‘lida” asaridagi personaj portretining tarjimada berilishi	46
12.	Абдумажид МАДРАИМОВ, Аскарый МАДРАИМОВ. Вопросы перевода научного наследия Захириддина Мухаммада Бабур и традиция перевода в библиотеке Акбара в XVI веке	51
13.	Supriya BANERJEE, Iroda UMAROVA Reimagining classics: Tagore, translation and the global reader	54
14.	Ziyodaxon TESHABOYEVA. “Boburnoma”da milliy-madaniy xususiyatli til birliklar va ularning inglizcha tarjimalari	58
15.	Zulhumor MIRZAEVA. Politics under the mask of poetics: Chulpon’s translations in the 1920s-1930s	62
16.	Abdumajid MAMADALIYEV. Badiiy matn tarjimasida milliy koloritni ifodalash muammosi	72
17.	Muhammadjon ABDUVALIYEV. Sinxron tarjimashunoslikning zamonaviy masalalari	74
18.	Мұратбек БАҒИЛА, Кәмшат АЙМАҒАМБЕТОВА. Қазақ тілін оқыту әдістемесінің жаңа парадигмалары	80
19.	Shermurod SUBHON. Ijodiy kengashlarda	84

20.	Shermurod SUBHON. Kitobxon oldida mas’uliyat	97
21.	Murtazo SAYDUMAROV, Mahmudaxon SAYDUMAROVA. O‘zbek adabiyotining ilk romani tarjimalarida lingvomadaniy xususiyatlar va semantik o‘zgarishlar	100
22.	Mahmadiyor ASADOV. Tarjima – qiyosiy adabiyotshunoslikning tadqiqot obyekti	107
23.	Toshtemir ALIMOV. Gender as a linguistic and cultural parameter in literary translation	113
24.	Tozagul MATYOQUBOVA. Ilk hasbi hol qasida va uning o‘zbek tarjimoni	116
25.	Dilafruz MUHAMMADIYEVA. “Boburnoma”ning turkcha tarjimasi bilan bog‘liq muammolar	120
26.	Umida TURAeva. Some challenges of translating forensic terminology between English and Uzbek	125
27.	Елена ПАНОВА. Мифопоэтическая традиция и проблемы перевода и функционирования онимов в волшебной повести «Алиса в стране чудес» Л. Кэрролла	128
28.	Gulnoz MAMARASULOVA. Siyosiy matn tarjimasining lingvokulturologik jihatlari	137
29.	Эльнора БАГАВОВА. Эволюция переводческих теорий: от традиционных подходов к современным тенденциям	140
30.	Dilfuza KHUDAIBERDIEVA. Translation studies: traditional and modern approaches	144
31.	Gulnoz MAMARASULOVA, Ruxshona CHO‘LIYEVA. Diplomatiik matnlarning tarjimada ifodalanishi	148
32.	Dilshod AMIRQULOV. Tarjimashunoslikda til tipologiyasi asosida komparativ yondashuv	151
33.	Tozagul NASRULLAEVA. Literary translation as interpretation: on the basis of Dreiser’s literary works	154
34.	Мохира ЭШКУВАТОВА, Достонбек АХМАДОВ. Роль лингвострановедческого компонента в обучении переводу	156
35.	Islom TURDIYEV. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ayrim ish yuritish terminlarining tarjima talqinidagi muammolari	160
36.	Фотима УМИРЗАКОВА. Проблемы традиционных и современных подходов в немецком переводе	163
37.	Shohsanam BEKMURATOVA. Maqollar tarjimasida tarjimonlarining lingvomadaniy yondashuvlari	166
II SHO‘BA. QIYOSIY TILSHUNOSLIK MASALALARI		
38.	Sayed Mohamed Ahmad KORAYEM. Principles for developing comparative linguistic studies	171
39.	Nedim BAKIRCI. Milli kimlik inʃasinda halk biliminin iʃlevi	183
40.	Farhad RAHIMI. Beʃ, bel, bilek, elik/ el ve ilik kelimelerinin etimolojik ve anlamsal baĝlantilari	190

41.	Farhad RAHIMI. Nezrali'nin Çağatay türkçesi sözlüğünün yanlıslari üzerine iii	196
42.	Сырга ОРУНБАЕВА, Долон МАЛДЫБАЕВ, Сагынбек ОРУНБАЕВ, Минаим МЫРЗАКМАТОВА, Жумакадыр КАРАМОЛДОЕВ. Горы и их лингвистические особенности: типология высот и культурных различий	215
43.	Saodat MUHAMMEDOVA, Kosimboy MAMUROV. Reforming the Uzbek latin alphabet: balancing phonology and global usability	221
44.	Jamoliddin YOQUBOV. O‘zbek va fransuz tillarida “ona” leksemasi ifodalanishining lingvomadaniy xususiyatlari	223
45.	Valijon VOSITOV. Inkor kategoriyasi lingvistik voqelik sifatida	228
46.	Khushnuda SAMIGOVA. Identifying the semantic component of affectionate form	230
47.	Nargiza DOSBAYEVA. Specific features of intercultural interaction in the course of teaching foreign languages	234
48.	Наргиза РАШИДОВА. Арабские заимствования в узбекском языке	237
49.	Ulugbek KARIMOV. Evolution of the cyborg in 21st-century science fiction	240
50.	Kamola ABDULLOEVA. Diskursiv shaxsning grafik vositalar orqali aks etishi	243
51.	Malohat BADALBAYEVA. The special lexicon of emergency situations in global linguistics	246
52.	Nargiza MIRZALIYEVA. Abdulla Qahhor va Ernest Xeminguey hikoyalari qahramonlarining o‘ziga xos xususiyatlari: badiiy tahlil va qiyosiy yondashuv	250
53.	Azizjon SHARIPOV. Yozma manbalarda Hirotning tarixiy toponimikasiga doir ma’lumotlar: Shohrux Mirzo davri	253
54.	Марина ИСКАКОВА. Тюркоязычный мир от древности	263
55.	Nargiza YUSUPOVA. The impact of artificial intelligence on comparative philology and translation studies	268
56.	Feruzaxon KARIMOVA. Aksiolingvistikada ma’naviy qadriyatlar talqini	272
57.	Zebiniso BEKMURADOVA. O‘zbek va fransuz maqollaridagi xiazmlarning stilistik, semantik va lingvokulturologik tahlili	276
58.	Sabohat QAHHAROVA. Yassaviy hikmatlarining lingvokulturologik tahlili	279
59.	Dildora KENJAYEVA. “Boburnoma”da antroponimlarning etimologik o‘ziga xosligi	283
60.	Gulchexra IBRAGIMOVA. Ingliz tilida abbreviatura va akronimlarning lingvistik tahlili	287
61.	Asror YUSUPOV. Lug‘at maqolasi strukturasi nazariyasining rivojlanishi	289

III SHO‘BA. QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI		
62.	Islamjan YAKUBOV. Rudakiy adabiy-estetik qarashlari va lirik qahramon kechinmalari	293
63.	Islamjan YAKUBOV. Tragik konflikt, tragik holat va tragik qahramon	299
64.	Dilnavoz YUSUPOVA, Kemal Yavuz ATAMAN. Uch tazkira qiyosi	308
65.	Gulnoz XALLIEVA, Sitora SHAHOBOVA. “Middlemarch” va “Anna Karenina” asarlarida ayol obrazining o‘rni	316
66.	Bahodir XOLIQOV. Britaniya adabiyoti va o‘zbek mifologiyasida daydi yog‘dularning badiiy xususiyatlari	320
67.	Gulnoz XALLIYEVA, Farangizbonu ADAMOVA. “Jek Raymond” romanida Jek obrazi tahlili	323
68.	Nuriddin ALTINBOYEV. Qiyosiy tahlilda tipologiya va ta’sir fenomeni	326
69.	Gulnoz XALLIYEVA, Iroda ABDULLAYEVA. The nature of satirical characters in the works of Jonathan Swift	330
70.	Mohinur SOTVOLDIYEVA, Gulnoz KHALLIEVA. The poetics and typology of father figures in world literature: a comparative study	333
71.	Xafiza KUCHKAROVA. Badiiy adabiyotda peyzajning o‘rni	336
72.	Dilafro‘z QAHNAROVA. Zamonaviy o‘zbek qissachiligi: xalq an’analari va yangi badiiy shakllar	340
73.	Elmira HAZRATQULOVA. Temuriylar davri adabiy muhitida ustoz-shogird munosabatlari	344
74.	Тоҳир ТУРДИБОЕВ, Нигора ЖЎРАЕВА. Беҳбудий таълимотида ижтимоий-маърифий масалалар	347
75.	Ma’suma OVIDJONOVA. Ingliz va o‘zbek adabiyotida ilmiy fantastikaning narratologik asoslari	351
76.	Эльмира АДильБЕКОВА, Сўлтан САНИЯТ. Türk masallarında hayvan motifleri: geyik motifinin kültürel yansimalari	357
77.	Эльмира АДильБЕКОВА, Сая БЕРІКҚЫЗЫ. Türk-islam kimliginin sembolü olarak Носа Ahmet Yesevi türbesi	368
78.	Эльмира АДильБЕКОВА, Гүлнұр ЕСЕНГЕЛДІ. Karaşaş Ana türbesi ve halk inançlarında kadın Evliya imgesi	375
79.	Дильфуза МАМЕТОВА, Малика ПРИСТАЕВА. Keloğlan ile padişahin kizi masalinin Anadolu, Uygur, Gagavuz varyantlarında kahraman ideali	383
80.	Карлыгаш БОРБАСОВА, Какимжан БИШМАНОВ, Мира БАЛТЫМОВА. Сравнительный анализ текстов Корана, Библии и Торы по проблеме межрелигиозного диалога и укрепления общенационального единства	394
81.	Улжан ТУНГАТОВА, Алуа АЛШЕР. Сравнительный анализ идей толерантности в Коране и Библии	400
82.	Ляззат АЛИЕВА, Möldir NIŞANHAN. Masalların mitolojik mirasi: şamanizm ve islam’in izleri	404

83.	Ынтымакгул НУРМАГОМБЕТОВА. Бейсенбай Кенжебаев зерттеулеріндегі қазақ және түркі әдеби мұраларының тарихи-филологиялық зерделенуі	412
84.	Saltanat YERALIYEVA. The writing of Khoja Akhmet Yasawi’s “Diwani hikmet” in turkic language	420
85.	Yorqinoy ISMONOVA. Bola timsolining roman obrazlari tizimidagi o‘rni	423
86.	Динара САЗАНОВА. “Диуани хикмет” мәтініндегі сопылық терминдердің рухани-философиялық мағынасы	427
87.	Шахноза КАРИМОВА, Жұлдыз МҮСІРКЕП. Akbura Evliya türbesi: türk-islam mimarisi ve halk inanci arasindaki bağ	433
88.	Bahodir ABSAMADOV. Shekspirning “Venetsiya savdogari” asarida komik adolat va axloqiy kinoya	440
89.	Ghalib ZEYAD. The evolution of Uzbek language, literature, and culture: the enduring legacy of Alisher Navai	445
90.	Axror QODIROV. O‘zbek qissachiligida xarakter va kolliziya: Qo‘Chqor Norqobil ijodi misolida XX–XXI asr badiiy talqinlarining evolyutsiyasi	451
91.	Мұратбек БАҒИЛА, Қанзада ЖҮБАНЫШЕВА. Тілді деңгейлік оқыту жүйесінің ғылыми негіздері	457
92.	Sevinchoy YOQUBOVA. G‘oyaviy-badiiy konsepsiya va poetik obrazlar hissiy tonalligi	461
93.	Munira KARIMOVA. The poetics of human and animal characters in Uzbek prose	472
<p>IV SHO‘BA. KOMPARATIVISTIKA VA METODIKA: TIL, ADABIYOT TA‘LIMI TIPOLOGIYASI</p>		
94.	Назаркул ИШЕКЕЕВ, Рима ЗАЙЫРКУЛОВА. Ааламдашуу доорунда медициналык багытта окуп жаткан чет элдик студенттерге «Манас» эпосу жана «Махабхарата» эпосундагы идеяларды салыштыруу менен тарбиялоонун мүмкүнчүлүктөрү	480
95.	Ирина ЯНОВСКАЯ. Формирование риторической компетенции в системе профессиональной подготовки студентов нефилологических специальностей	487
96.	Лариса БАСОВА, Светлана ДРАЧЕВА. Повышение качества обучения русскому языку в странах постсоветского пространства: опыт Тюменского государственного университета	490
97.	Айгул АЙТБЕНБЕТОВА, Нургул ЖОЛДАСОВА. Қазақ тілін оқытудағы цифрлық ресурстар: тиімділігі мен болашағы	494
98.	Muxabbat MATQURBONOVA, Umida YANGIBOYEVA. Ikki tillilik sharoitida o‘zbek tili ta’limining komparativ tahlili	498
99.	Зулхумар ЖУМАНОВА. Роль алгоритмов в формировании навыков устной и письменной речи студентов	500
100.	Максим ЧИКОВ, Диляра ЗАРИПОВА. Проблемы подготовки специалистов в тройке языков русский-английский-узбекский и пути решения	504
101.	Раъно ИСАМУТДИНОВА. Система упражнений для развития навыков устной речи на занятиях по русскому как иностранному	509

102.	Зулфия КУРБАНОВА. Методика работы с текстом на занятиях по русскому как иностранному	513
103.	Nilufar BURIYEVA. Sun’iy intellekt vositalari asosida o’quvchilarning lingvokulturologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi	516
104.	Шахло УРИНОВА. Методика формирования лексической компетенции студентов в процессе изучения русского как иностранного	520
105.	Gulnoz MAMARASULOVA. Geopolitical meanings in media discourse	524
	V SHO’BA. КОМПАРАТИВИСТИКА YOSH TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA	
106.	Saida SULTANOVA. Badiiy tarjimaga o’rgatishda an’anaviy va zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati	529
107.	Зухра МОЛДАБАЕВА, Айжан ЖАНҒЫЛЫШ. Коммуникативтік құзыреттілікті қалыптастырудағы инновациялық әдістер	533
108.	Barno ABDULLAYEVA. “Boburnoma”ning xorijiy tillarga tarjima qilinishi	539
109.	Zilola ERGASHEVA. The transformation of translation practices through artificial intelligence technologies	544
110.	Dilfuza ZOYIROVA, Aziza YORIQULOVA. Tarjima jarayonida ekvivalentlik tamoyilining an’anaviy talqinlari	547
111.	Anvar MIRZAQULOV. Ikkinchi jahon urushidan so’ng sinxron tarjimaning paydo bo’lishi va rivojlanishi	549
112.	Shuhrat MULADJANOV. Different approaches to the lingua-stylistic analysis in literary translation	552
113.	Gulshan ERGASHEVA. Tarjimashunoslikda an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar: o’zbek va nemis tilidagi frazeologizmlar talqinida	555
114.	Dilnoza SHONAZAROVA. Xabarlar tarjimasi va lokalizatsiyasi	559
115.	Умида МУХАММАДИЕВА. Язык и культура: трудности перевода национально-культурных особенностей	562
116.	Gulnoza XUDAYQULOVA. Badiiy asarlarni tarjima qilishda uchraydigan ba’zi frazeologik muammolar	567
117.	Shoira XODJAYEVA. Bilvosita tarjimaning muammolari: an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar	570
118.	Djamila BEGJANOVA. Paremiologik birliklar tarjimasida lingvokulturologik ekvivalentlik	573
119.	Shaxnoza IBRAGIMOVA. Linguistic representations of characters and peculiarities of translating their original names in “A farewell to arms”	577
120.	Fazilat XABIBULLAYEVA. Mumtoz adabiy manbalar tarjimasida: arxaik leksika jahon tarjimashunosligi kontekstida	580
121.	Maftuna RO’ZMETOVA. Fentezi adabiyoti tarjimasida madaniy konnotatsiyalarning ifodalanishi	584
122.	Maftuna SAPAROVA. “Al-qistosu-l-mustaqim fi ilmi-l-arud” asarining ingliz tilidagi tarjimasida xususida	588